

**O'ZBEKISTONDA TARQALGAN QUERCUS L TURKUMI VAKILLARI,  
ULARNING TARQALISHI VA AHAMIYATI**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi 202- guruh talabasi*

**RAYIMJONOVA SHOHIDA ODINAJON QIZI**

*Email: @rayimjonovaumida478@.com*

*Ilmiy rahbar: Tojiboyev Murodali Umaraliyevich.*

**Аннотация.** В данной диссертации описываются представители отряда *Quercus L*, широко распространенные в Узбекистане, их распространение на местном уровне, их значение в природе и в народном хозяйстве.

**Ключевые слова:** Цветок, плод, клюв, плод ореха, дуб (*quercus*), головка, кучала.

**Annotation.** This thesis describes the representatives of the order *Quercus L*, widespread in Uzbekistan, their distribution in the local, their importance in nature and in the national economy.

**Key words:** top flower, fruit, beak, nut fruit, oak (*quercus*), head, get stronger.

Emandoshlar (Fagaceae) asosan bargini to`kadigan yoki doim yashil daraxt va ayrim butalardan iborat. Emanlar asosan Shimoliy Yarimsharda keng tarqalgan bo`lib, ayrim turlari Janubiy ekvatorlarda o`sadi. Emanlarning ko`pchilik turlari juda yirik daraxtlar bo`lib, baladligi 35-40metrga yetadi. Barglari oddiy navbatlashib joylashgan. Gullari ayrim jinsli, gulqo`rg`oni oddiy, urug`chi tugunchasi ustki, to`pguli kuchala va kallakcha shaklida tuzilgan. Mevalari asosan bir urug`li yong`oqcha. Bu oilaning 600ga yaqin turi tarqalgan. Eman (*Quercus*) daraxtining shox-shabbalari yoyiq, po`stlog`i silliq, kulurang tusda. Ba`zi turlarining po`stlog`ida po`stlog`ida po`kak qavatlar hosil bo`ladi. Kurtaklari bandsiz, tangachalar bilan qoplangan bo`lib, spiral shaklda joylashadi. Barglari

ham oddiy, spiral shaklda joylashadi, ba'zi turlarida qish bo'yi yashil holda saqlanadi, boshqalarida esa tez to'kilib ketadi. Gullari ayrim jinsli, bir uyli daraxt. Barg to'kadigan turlari barg yozish bilan bir vaqtda gullaydi. Otalik gullari osilib turadigan kuchala hosil qiladi. Ular novdaning tub qismida yoki kuzgi kurtaklardan o'sib chiqadigan novdalarda joylashadi. Onalik gullari bandsiz yoki bandlibo'lib, barg qo'ltig'ida bittadan yoki bir nechtadan joylashadi. Gulishamol vositasida changlanadi. Guli changlanadigan vaqtda urug' kurtak hali takomillashmagan bo'lib, mevasi keyinroq tugiladi va har xil muddatda yetiladi. Mevasi biryilda yetiladigan turlarida gullari changlangandan keyin 2 oydan so'ng urug'lanish ro'y beradi.

Mevasi ikkinchi yili yetiladigan turlarida esa 13—14 oydan so'ng sodir bo'ladi. Tugunchadagi 6 ta urug'kurtakning, odatda, bittasi urug'lanadi, xolos. Ayrim vaqtlarda 2—3ta yoki 4 ta urug'kurtak urug'lanishi mumkin. Bunda 3-4 urug'meva yetiladi. Mevasi bir urug'li yong'oqmevabo'lib, birinchi yoki ikkinchi yili yetiladi. Yetilgan meva ajralib yerga to'kiladi. Mevasi (yong'og'i)  $-5^{\circ}$ — $-7^{\circ}$  C sovuqqa chidaydi. Nam tuproqqa tushsa va harorat normal bo'lsa una boshlaydi. Ildizi o'q ildiz. U keyin shoxlanib ketadi va yerga 10—12 m chuqur o'sibkiradi. Emanning hamma turi ildizida mikoriza hosil bo'ladi. Tabiada bunday o'simliklar mikotrof deyiladi. Bu tur vakillarining ildizi bachki hosil qilmaydi. Ko'payishi asosan qalamchalar va parxish yo'li bilan boradi. Tur vakillari yorug'sevlar suv yetishmasligiga chidamli. Tur vakillari 400-1000 yilgacha yashaydi.

Emandoshlar oilasi bilan qisqacha tanishdik, ushbu oila vakillarini ishlatilish sohalari asosan, yog'ochi sanoatning ko'plab sohalarida jumladan, aviatsiya kemasozlikda qimmatli xom ashyo hisoblanadi. Po'stlog'idan teri oshlashda foydalaniladi. Shahar ko'chalari va xiyobonlardamanzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Ba'zi turlarining po'stlog'idan po'kak olinadi. Yong'og'idan oziq-ovqat sanoatida sun'iy qahva tayyorlanadi. O'zbekistonda emandoshlar oilasini 7ta turi uchraydi. Bularidan biri qo'ng'ire man (quercus robur) turidir. Qo'ng'ir eman (Quercus Robur) yong'oq meva kuzda pishib to'kiladi. Bu tur Kavkazda va MDHning yevropa qismini janubida o'rmonlarni hosil qiladi. Emandoshlar oilasi

turlari ham keng, ularni yog'ochlik qismi hujayralari mustahkam bo'lganligi uchun ham ular tashqi muhit noqulay sharoitlariga chidamli bo'ladi.

### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'. Prator, L.Shamsuliyeva, E. Sulaymonov, X.Axunov, K. Ibodov, V. mahmudov, Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika) Toshkeny.

2. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev "Dendrologiya" Toshkent-2012.

3. Botanika (o'quv qo'llanma). Toshkent 2018.

4. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoirra Rafiqova Botanika asoslari (o'quv qo'llanma). Toshkent 2009.

5. E.T. Berdiyev, SH.F. Gulamxodjayeva "Manzarali daraxtlarni ko'paytirish" Toshkent 2020.6.

6. "Gul va manzarali o'simliklar o'simliklar florasi va sistematikasi" uslubiy qo'llama. Namangan-2022.